“NEO INSURANCE CORP” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi
B A Y O N N O M A S I

Yig‘ilish o‘tkazilgan sana: 2026-yil 5 oktyabr
Yig‘ilish o‘tkazilgan vaqti: Toshkent vaqti bilan – 10:00
Yig‘ilish o‘tkazilgan manzil: Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Hamid Sulaymon MFY, Mirobod ko‘chasi, 9-A-uy.

“NEO INSURANCE CORP” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda — “Jamiyat”) aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Jamiyat Ustavi hamda Jamiyat Kuzatuv kengashining 2026-yil 14-sentyabrdagi 38 -sonli qaroriga asosan o‘tkazildi.

Mazkur aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashi tashabbusi bilan chaqirildi.

Jamiyat aksiyadorlariga aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqidagi xabarnoma qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyadorlarning elektron pochta manzillariga, shuningdek Korporativ axborot yagona portali — www.openinfo.uz hamda Jamiyatning rasmiy veb-sayti — www.neoinsurance.uz orqali e’lon qilindi.

Sanoq komissiyasi tomonidan 2026-yil 29-sentyabr holatiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy depozitariysi tomonidan shakllantirilgan aksiyadorlar reestri asosida yig‘ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ro‘yxatga olindi.

Mazkur reestrga ko‘ra, Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari soni jami 16 000 000 (o‘n olti million) ta ovozni tashkil etdi.

Sanoq komissiyasi yig‘ilishda ishtirok etish uchun jami 7 (yetti) nafar aksiyadorni ro‘yxatga oldi. Shundan:

- yuridik shaxslar – 3 ta, 10 085 000 ta ovoz (63,03 foiz);
- jismoniy shaxslar – 4 ta, 5 915 000 ta ovoz (36,97 foiz).

Sanoq komissiyasi raisi Xalikov Ulug‘bek Rahimjanovich yig‘ilish ishtirokchilariga yig‘ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyatning jami ovoz beruvchi aksiyalarining 100 foizini tashkil etayotganligi, shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 68-moddasiga muvofiq, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kvorumga ega ekanligi hamda qarorlar qabul qilish vakolatiga ega ekanligi haqida ma’lumot berdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-moddasiga muvofiq, aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi Ikromov Olimjon Ganievich raislik qildi.

Yig‘ilish raisi yig‘ilish ishtirokchilariga aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kvorumga ega ekanligini va qonuniy ravishda o‘tkazilayotganligini ma’lum qildi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi bayonnomasini yuritish uchun M.Turgunbayev yig‘ilish kotibi etib belgilandi.

Yig‘ilish raisi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishga oid tarqatma materiallar aksiyadorlarga taqdim etilganligini ma’lum qildi hamda mazkur materiallar va yig‘ilish kotibini aksiyadorlardan tasdiqlashni so‘radi.

Aksiyadorlar tomonidan mazkur materiallar hamda yig‘ilish kotibi bir ovozdan tasdiqlandi.

KUN TARTIBI:

1) Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibidagi o‘zgarishlarni tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig‘ilish raisi O.Ikromov so‘zga chiqib, Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zolari Jurayev Farruxjon Nirmaxamatovich, Pulatova Feruza Xurshedovna va Ikramova Zulfiya Tulkinovna tomonidan o‘z vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida arizalar berilganligini ma’lum qildi.

Shu munosabat bilan Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibidagi tegishli o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadida bo‘shayotgan uchta o‘ringa nomzodlar o‘rganib chiqilganligi ta’kidlandi.

Nomzodlarni ko‘rib chiqish jarayonida ularning kasbiy tajribasi, bilim va ko‘nikmalari, shuningdek, Jamiyat faoliyatining strategik yo‘nalishlarini rivojlantirishga qo‘sha oladigan hissasi inobatga olinganligi qayd etildi.

O‘rganishlar natijasiga ko‘ra, Mirkurbonova Malika Xamidzoda, Yusupov Davronbek Ravshanovich va Ergashev Sardor Umar o’g’li nomzodlari Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zoligiga saylash uchun taklif etildi. Mazkur nomzodlarning kasbiy tajribasi, bilim va amaliy ko‘nikmalari Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, strategik maqsad va rejalarini samarali amalga oshirish hamda Jamiyat faoliyatini barqaror rivojlantirishga munosib hissa qo‘shishi mumkinligi ta’kidlandi.

Shundan kelib chiqib, yig‘ilish raisi aksiyadorlardan Mirkurbonova Malika Xamidzoda, Yusupov Davronbek Ravshanovich va Ergashev Sardor Umar o’g’li nomzodlarini Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zoligiga saylash hamda Jurayev Farruxjon Nirmaxamatovich, Pulatova Feruza Xurshedovna va Ikramova Zulfiya Tulkinovnaning Kuzatuv kengashi a’zolari sifatidagi vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilishni so‘radi.

Ovoz berish yakunlari:

Jamiyat Kuzatuv kengashining uch nafar a’zosini saylash masalasi bo‘yicha ovoz berish kumulyativ ovoz berish usulida amalga oshirildi.

Kumulyativ ovoz berish natijalariga ko‘ra nomzodlar quyidagi miqdorda ovoz to‘pladi:

№	Nomzodning F.I.Sh.	Berilgan kumulyativ ovozlar soni
1	Mirkurbonova Malika Xamidzoda	16 000 000
2	Yusupov Davronbek Ravshanovich	16 000 000
3	Ergashev Sardor Umar o'g'li	16 000 000

Sanoq komissiyasining ovoz berish yakunlari bo‘yicha hisoboti tinglanib, Mirkurbonova Malika Xamidzoda, Yusupov Davronbek Ravshanovich va Ergashev Sardor Umar o’g’li Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zoligiga saylanganligi qayd etildi.

Mazkur masala yuzasidan bildirilgan taklif va fikrlar muhokama qilinib, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi

QAROR QILDI:

1. Jamiyat Kuzatuv kengashi a’zolari Jurayev Farruxjon Nirmaxamatovich, Pulatova Feruza Xurshedovna va Ikramova Zulfiya Tulkinovnaning o‘z vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risidagi arizalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari Jurayev Farruxjon Nirmaxamatovich, Pulatova Feruza Xurshedovna va Ikramova Zulfiya Tulkinovnaning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin va ular Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqarilsin.
3. Mirkurbonova Malika Xamidzoda, Yusupov Davronbek Ravshanovich va Ergashev Sardor Umar o'g'li Jamiyat Kuzatuv kengashining amaldagi tarkibiga 3 (uch) yil muddatga saylansin.
4. Yig'ilish raisiga Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi a'zolari Mirkurbonova Malika Xamidzoda, Yusupov Davronbek Ravshanovich va Ergashev Sardor Umar o'g'li bilan qonunchilik va Jamiyatning ichki hujjatlarida belgilangan tartibda shartnomalar tuzish vakolati berilsin.
5. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda tegishli axborotni Korporativ axborot yagona portalida (www.openinfo.uz) va Jamiyatning rasmiy veb-saytida aks ettirish Jamiyat Bosh direktori X. Hidoyatov zimmasiga yuklatilsin.
6. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash Jamiyat Bosh direktori X. Hidoyatov zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish raisi kun tartibidagi yagona masala ko'rib chiqilib, u bo'yicha tegishli qaror qabul qilinganligini ma'lum qildi. Kun tartibida boshqa masalalar mavjud emasligi munosabati bilan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'z ishini yakunlagan deb e'lon qilindi.

Ushbu bayonnoma 2026-yil 9 -oktyabr kuni 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirildi.

Yig'ilish raisi: **O.Ikromov**

Yig'ilish kotibi: **M.Turgunbayev**